




International Scientific and Practical Conference on the
topic: "Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



MARKAZIY OSIYO BOZORLARI TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARI

Kushmanov To'lg'in Fayzullayevich,

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura- qurilish universiteti,

"Interier va landshaft dizayni" kafedrası mudiri,

Samarqand, O'zbekiston.

t.kushmanov@samdaqi.edu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada markaziy osiyo bozorlari taraqqiyotiga sababchi bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar tahlil qilingan

Kalit so'zlar: bozor, rabot, sardoba, marhala, toq, chorsu, tim.

Ma'lumki qadimdan savdo-alloqalari Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixga bir nazar tashlar ekanmiz, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq hamda O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib borilganining guvohi bo'lamiz. Vizantiya tarixchisi Fotiy eramizdan avvalgi V-VII asrlardayoq Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarning Hindiston bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yilganligi haqida ma'lumot beradi. Xitoy elchisi Chjan Syan ham o'zining Markaziy Osiyoga tashrif chog'ida (er. av. 126 y.) Baqtiriya bozorlarida Xitoydan olib kelib sotilayotgan mollarni ko'rgan. Markaziy Osiyodagi savdo munosabatlari, ayniqsa, o'rta asrlarda keng quloch yoydi. Savdo karvonlari minglab kilometr yo'l bosib Sharqning eng asl mollarini xususan, ipak matolarini Markaziy Osiyo orqali Yevropaga olib borar edi. Shuning uchun bu yo'l F.Rixtgoften tomonidan (19 asr) "Buyuk Ipak yo'li" deb nomlandi. Savdo munosabatlarini tashkil etish o'z navbatida turli xil mahsulotlarni saqlash, sotish bilan bog'liq bo'lgan shart sharoitlarni talab qilganki, bu jarayonlar shaharlar va bozorlar qurilishida o'z aksini topgan. Shuning uchun ham o'rta asr shaharlarini bozorlarsiz tassavur etib bo'lmaydi. Shaharlarning savdo munosabatlaridagi ahamiyati, avvalambor, ularning boshqa shahar va davlatlar bilan bog'lab turuvchi daryo bo'ylari yoki karvon yo'llarida joylashganiga bog'liq bo'lgan. Shu sababli, Markaziy Osiyoning aksariyat shahar va qishloqlari daryo va savdo yo'llarining bo'ylarida joylashgan.

"Xankinskaya volost" kitobining mualliflaridan biri shunday yozadi: "Bozorlar oralig'i bir – "marhala"ga, ya'ni savdo karvonlarining bir kunda bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofaga (35-50 km) teng edi. Hafta kunlari o'zgarishi bilan bozor kunlari ham navbatma-navbat almashib borardi. Payshanba, juma bozor singari hafta kunlari bilan bog'liq nomlarning kelib chiqishiga sabab shu".

Ilk o'rta asrlardagi savdo-sotiq ishlarida Sug'diylar juda faol qatnashganlar. Hatto, so'g'd tili quriqlikdagi savdo yo'llarida asosiy xalqaro til hisoblangan. Ular nafaqat chet el mollari bilan oldi-berdi qilishar edi, balki o'z mollarini ham Xitoy, Mo'g'iliston, O'rta yer dengizi mamlakatlariga olib borib sotishar edi. Xitoylik sayyoh Syuan Szanning (629 yil) ma'lumot berishicha, So'g'd aholisining yarmi dehqonchilik bilan, yarmi esa savdo ishlari bilan shug'ullangan. Bola besh yoshga kirishi bilanoq, unga savdo o'rgatila boshlashgan, o'qishni bilib olgandan so'ng uni savdo ishlarini o'rganishga majbur qilishgan. So'g'd shaharlari esa bu davrda mahalliy va chet el mollariga to'lib toshgan edi.

Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va yagona xalifalikning tashkil topishi ushbu mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar hosil qildi. Islom dunyosidagi barcha xalqlarning madaniyati, fan yutuqlarining umumlashuvi, qolaversa, savdo karvonlarining ulkan hudud bo'ylab bexatar, to'siqlarsiz harakatlanishi, savdo munosabatlari va ishlab-chiqarishning yanada rivojlanishiga olib keldi.

IX-X asrlar Somoniylar davlati tashkil topgan va gullab yashnagan davrdir. Ichki va tashqi savdo aloqalari ham bu davrda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi., deyarli barcha yirik shaharlar va karvon yo'llarida shinam karvonsaroilar bunyod etildi. Istahriyning (X asr) ma'lumot berishicha, ular o'n mingtadan ham ortiq bo'lgan.

Bozorlar va savdo inshootlari taraqqiyotning yana bir pallasini bu Temuriylar davridir. XIV asrning oxirlarida Amir Temur Yaqin va Uzoq Sharqning bir qator mamlakatlarini Movarounnahr yerlariga qo'shib olgan ulkan davlat barpo qildi. Bu davlat qudratli, markazlashgan kuchli hokimiyatga ega edi. Ushbu hokimiyatning olib borgan taraqqiyparvar siyosati tufayli ichki va tashqi savdo munosabatlari, ayniqsa, hunarmandchilik gullab yashnadi. Poytaxt Samarqand xalqaro va mahalliy savdo aloqalarining eng yirik markaziga aylandi. Unda "Xitoy, Hindiston, Tatariston, Samarqand podshohlilgining o'zidan va boshqa o'lkalardan olib kelingan turli mahsulotlar sotiladi..." – deb ta'rif bergan edi Klavixov. Samarqandning boshqa shaharlarda kam uchraydigan o'ziga xos xislati shundan iborat ediki, unda hunarmandchilikning har bir turi uchun alohida joylar ajratilgan edi. Bu haqda Bobur shunday yozadi: "Samarqand shahri ajab orasta shahardur, bu shaharning bir xususiyati borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay, har xirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-biriga maxlut emastur, Tavr rasmedur..."

Hunarmandchilik va savdo munosabatlarining to'g'ri tashkil qilinishi va rivojlanishi uchun keng maydonlar talab qilinardi. Shuning uchun ham Samarqand shahridagi ko'pgina joylar savdo ahli ixtiyoriga topshirilgan edi. Bu haqda Klavixov shunday yozadi: "Shaharlarda go'sht, tovuq, qush, non va mevalar sotiladigan maydonlar juda ko'p.ushbu maydonlarda kechayu-kunduz qizg'in savdo-sotiq qilinadi. Shaharlarda bozorlar shu qadar ko'p ediki, hatto Samarqanddan Temur bog'lariga olib boruvchi yo'l bo'ylarida ham tarvuz, qovun, har xil meva va sabzavotlar sotiladigan bozorlar joylashgan edi".

XVI asrning boshlarida Temuriylar davlati inqirozga yuz tutganidan so'ng tarix sahnasiga Shayboniylar chiqdi. Bu davrga kelib, Yevropalik ba'zi sayyohlarning yangi dengiz yo'llarini ochishi Buyuk ipak yo'lidagi xalqaro savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsata boshlagan edi. Shayboniylar oldidi turgan asosiy muammolardan bittasi bu xalqaro savdo aloqalarini yuqori darajada ushlab turish edi. Abdullaxon 2 o'z hukmronligi davrida bu vazifaning uddasidan chiqdi. Uning hukmronligi davrida savdo inshootlari qurilishi keng quloq yoydi. U nafaqat poytaxt Buxoroda, balki boshqa shahar va qishloqlar, karvon yo'llarida ham savdo bilan bog'liq ko'plab inshootlar qurgan. Tarixiy ma'lumotlarda qayd qilinishicha, u karvon yo'llarida 1001 ta rabot va sardobalar bunyod etgan ekan.

Ma'lumki, tabiiy-iqlim sharoitlar bino va inshootlarning me'moriy tuzilishini aniqlab beruvchi eng muhim omillar sarasiga kiradi. Har bir hududning o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitlari bo'lganidek, ularga mos tarzda me'morchilik obyektlari ham shakllanadi. Markaziy Osiyoning uzoq yoz kunlari davomida yuqori haroratli issiq-quruq iqlimi sharoitida soya-salqin joylarni tashkil qilishga katta ehtiyoj seziladi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqqan holda Markaziy Osiyo hududida yopiq savdo inshootlari (toq, chorsu, tim va do'konlar) shakllandi. Bunday savdo inshootlariga Samarqand, Shahrisabz chorsulari, Buxoro, Xiva shaharlaridagi toq va timlar misol bo'la oladi. Shuningdek, Temuriy Shohrux Mirzoning Hirotda yopiq savdo ko'chalari bunyod etganligi haqida ham ma'lumot bor.

Shuningdek, Markaziy Osiyo bozorlarida yopiq va yarim yopiq savdo inshootlarining o'zaro birlashgan turi ham mavjud bo'lgan. Bunga oldi ayvonli qilib qurilgan do'konlarni va usti qamish, bo'yra tashlab yopilgan savdo ko'chalarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Savdo do'konlari va ayvonlarining bunday o'zaro birlashmasini Markaziy Osiyoning barcha bozorlarida ko'plab uchratish mumkin bo'lgan. Har bir xalqda bo'lgani singari Markaziy Osiyo xalqlari ham qadimdan o'zining turmush tarzi, diniy qarashlariga mos urf-odatlariga, an'ana va bayramlariga ega bo'lgan. Albatta ushbu an'ana va bayramlar ham bozorlarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Shunday qilib, bozorlar shakllanishi va taraqqiyotining asosiy ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy omillari quyidagilardan iborat:

- kuchli markazlashgan davlat hokimiyatining mavjud bo'lishi va uning taraqqiyparvar siyosati;
- xalqaro va mahalliy savdo munosabatlarning rivojlanishi va ushbu rivojlanish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilishi;
- hunarmandchilik va dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi;
- mamlakatda tinch-totuvlikning ta'minlanishi;

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Руи Гансалес де Клавихо. "Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура". Москва:Наука. 1990.
2. Абу-л-Касыма Ибн-Хавкал. «Пути и страны». Перевод Е.К.Бетгер. Труды САГУ. История науки. Кн.25. Ташкент, 1957.
3. Н.Ибрагимов. «Ибн-Баттута и его путешествия по Средней Азии». Москва: Наука, 1988.
4. А.Анарбоев. «Благоустройство средневекового города Средней Азии». Ташкент:Фан. 1981.
5. Абу Бакир Мухаммад ибн Жаъфар ан Наршахий. «Бухоро тарихи». Мерос туркуи. Тошкент:Камалак. 1991.